ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QASHQADARYO VILOYATI O'ZBEK SHEVALARIGA FORS-TOJIK VA ARAB TILLARIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLAR TAHLILI

Muxammadiyev Nodir Rustamzoda,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Qashqadaryo viloyatidagi o'zbek shevalari tarkibidagi leksik qatlamlarni o'rganar ekanmiz umumxalq o'zbek tili va shevalarida uchragani singari ularda turkiy so'zlar bilan bir qatorda, bir muncha fors-tojik so'zlar ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalari leksikasida, qisman bo'lsa-da, mo'g'ulcha va xitoycha elementlar ham borligiga guvoh bo'lamiz.

Ma'lumki, o'zlashgan so'zlarning miqdori o'zbek adabiy tili, uning lahja va shevalarida bir xil emas. Masalan, markaziy va shahar shevalarida rus tili elementlari ko'proq qo'llangan holda, olis hududlarda fors-tojik va arabcha birliklar nisbatan ko'p o'zlashgan. Darhaqiqat, o'zga tillardan o'zlashgan so'zlar kirib kelgan tilning fonetik, leksik tizimi, uning tabiati va ichki taraqqiyot qonunlariga bo'ysungan holda qabul qilinadi.

O'zbek adabiy tili va shevalariga o'zlashgan so'zlar og'zaki so'zlashuv bilan birga kitobiy til orqali ham o'zlashib kelayotir. Masalan, fors-tojikcha so'zlar o'zbek shevalariga, asosan, og'zaki so'zlashuv nutqi orqali o'zlashgan.

Chetdan kirgan ba'zi so'zlar tilimizga shunday singib ketadiki, natijada, uning qaysi tildan kirib o'zlashganini aniqlash juda qiyin bo'ladi. Masalan, Maraz (K., Sh.) – 1) isqirt, jirkanch; 2) kishilarga yomonlik qiluvchi kishi; 3) yuqumli teri kasalligiga chalingan kimsa – moxov; 4) sovuq – xunuk (turq). Mazkur so'z o'zining 1-, 2- va 3-ma'nolari bilan arabcha «mariz» so'zidan o'zlashgandek ko'rinsa, 4-ma'nosi bilan ruscha «moroz» (sovuq) so'zidan o'zlashgandek tasavvur uyg'otadi. Yoinki «jo'ra» (K., Sh.) 1) *do'st, o'rtoq* so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgandek, ammo ma'lum bo'ladiki, mazkur so'z hindcha bo'lib, 2) fors tilida «dugona», o'zbek tilida esa «egiz» degan ma'noni anglatadi. Hatto keyinchalik ma'no taraqqiyotiga uchrab 3) »xotin, umr yo'ldosh» ma'nosidagi «juft» so'zi o'rnida hamda 4) kishi ismi, shuningdek, 5) homilani ona bilan bog'laydigan «esh, yo'ldosh» ma'nosida ham qo'llangan. **Lajxorak** (K., Sh.) – qushlarning bir turi; chuvalchang; **ziyod** (K., Sh.) – 1) ko'p, ortiq, ziyod; 2) kishi ismi; **popo'sh** (K., Sh) – oyoq kiyimi kabilar. Shuningdek, **Kitob** – joy nomi ham arabcha «kataba» (yozmoq) fe'li asosidan hosil bo'lgandek, aslida esa forscha «kitf» va «ob» so'zlaridan kelib chiqqan. Mazkur so'zlar turli tillarga oid bo'lib, Kitob-Shahrisabz shevalariga o'tgan.

Ta'kidlash lozimki, ko'pgina o'zbek shevalari vakillari (tojiklar ham) ushbu toponimni arabcha so'z deb biladilar. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tildagi o'zlashma so'zlar har doim qiziqarli va bahsli til hodisalaridan hisoblanadi.

Tadqiq etilgan shevalarda fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar boshqa tillarda, shuningdek, adabiy tilga nisbatan ko'proq miqdorni tashkil etadi. Adabiy tilimizga fan-texnika, ishlab-chiqarish, iqtisodiyot, sport va madaniy hayotga oid so'zlar ko'proq kirib o'zlashgan bo'lsa, Kitob-Shahrisabz guruh shevalarida shu bilan birga, bir talay maishiy va qishloq xo'jaligiga xos so'z-atamalar ham o'zlashtirilgani aniqlandi.

Fors-tojikcha so'zlar. O'zbek xalqining barcha vakillari singari Kitob-Shahrisabz aholisi ham tojiklar bilan juda qadim zamonlardan umumiy bir hududda yashab, kundalik turmushning barcha tarmoqlarida o'zaro hamkor bo'lib kelganlar[1]. Jumladan, Xusrav Dehlaviy (1253–1325), Bedil (1644–1721) kabi mashhur fors shoirlarining ona yurti sifatida ko'pgina manbalarda tilga olinishi, shuningdek, jahongir Amir Temur hamda o'zbek tilining asoschisi, millat quyoshi – Alisher Navoiy ajdodlarining kelib chiqishi ham mazkur yurtga taqalishining o'zi shuni ko'rsatadiki, bu hududda o'zbek va tojik xalqi aloqalari juda qadimiy ildizlarga ega.

Kitob-Shahrisabz guruh o'zbek shevalari yuzasidan olib borilgan lingvistik kuzatishlar shuni isbotlaydiki, mazkur sheva vakillari bilan tojiklar orasidagi juda yaqin aloqalarning o'rnatilishi ularning tilida ham o'z ifodasini topgan.

Kitob-Shahrisabz tumanlarida Surxondaryo, Buxoro, Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysidagi kabi o'zbek va fors-tojik tilida baravar so'zlashuvchi bilingual aholi mavjud.

[1] Боровков А.К. Узбекско-таджикское двуязычие и вопрос взаимоот, но шенения таджикско-узбекского. – Б.

Fors-tojikcha so‘zlarning Kitob-Shahrisabz guruh shevalariga tarqalish doirasi ham bir xil emas. Masalan, Kitob tumani hududida yashovchi sheva vakillari nutqida Chiroqchi, Yakkabog‘ va Qamashi tumanida yashovchi aholi nutqiga nisbatan tojikcha so‘zlar ko‘p uchraydi, chunki Kitob tumani hududida tojiklar zich joylashgan. Mazkur holat so‘z yuritilayotgan tumanlarda ham til vakillarining tojikzabonlar bilan hududiy yaqinlik yoki uzoqlik jihatidan farqlanadi, bu esa tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqib o‘zgarishlarga uchrashining bir ko‘rinishidir. Jumladan, bu ikki xalq o‘rtasidagi xo‘jalik, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlar sobiq sho‘rolar zulmi davrida yanada faollashdi va rivojlandi. Bu ikki xalq umumiy dushmanga nisbatan birgalikda qarshilik ko‘rsatib, o‘zaro yaxshi qo‘shnichilik va yor-birodarlik yo‘lini tutganlar.

O‘zbek va tojik tillari leksikasidagi aralashuvning ijobiy tomonlari tojik tilshunosligining yirik namoyandalaridan biri, akademik B.Niyozmuxammedov tomonidan ham e’tirof etilgan. U shunday yozadi: «O‘zbek tilining lug‘at tarkibida ko‘plab miqdorda fors-tojik so‘zlari bo‘lganidek, tojik tili leksikasida ham kelib chiqishi turkiy va o‘zbekcha bo‘lgan so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin».

Har qanday manbalarga qaraganda tojik tili leksikasida turkiy «o‘zbekcha» so‘zlar XI asrgacha paydo bo‘la boshlagan. XI-XII asrlardayoq tojik tilida *xon, xoqon, ilik, tamg‘a, elxon* singari turkiy so‘zlar ishlatilgan. Rashiddin Fayzulloning «Jome’ ut-tavorix» asarida *oqo, qudo, anda, yaroq, qorovul, ega* singari turkiy so‘zlar uchraydi.

Aytishimiz lozimki, o‘zbek tilining rivojlanishida uning lug‘at tarkibining boyishida fors-tojik tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklarning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Shular o‘zbek tili leksikasining o‘zlashgan qatlamidan munosib o‘rin olgan. O‘zbek tili lug‘at tarkibining o‘zlashgan qatlamini ularsiz tasavvur etish qiyin. Shu hol o‘zbek tili leksikasidan unga qardosh bo‘lgan boshqa turkiy tillar leksikasidan farqlash uchun xizmat qiladi.

Tojik-fors lug‘aviy o‘zlashmalari boshqa turkiy tillar leksikasida, o‘zbek tilinikidan bo‘lgani kabi katta salmoqqa ega emas. Masalan, o‘zbek tilida chorva va undan yasalgan chorvachi so‘zlarning ma’nosi Qozoq tilida mol va molchi; paxta, paxtazor so‘zlarning ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilidagi tojikcha-forscha bahor, barg, qahramon, so‘zlari o‘rnida Tatar tilida yz/ez, yaprak, geroy singari lug‘aviy birliklar ishlatiladi. Bu kabi misollar natijasida tojik tilining o‘zbek tili va uning lug‘at tarkibiga samarali ta’sirini ko‘rishimiz mumkin.

Fors-tojik tiliga mansub lug‘aviy birliklarning o‘zbek tiliga o‘zlashishini ham yozma badiiy adabiyot, ham og‘zaki nutq vositasida amalga oshgan. Fors-tojik so‘zlarining o‘zbek tiliga nutqning og‘zaki shakli orqali o‘zlashishida, tojik tili amalda bo‘lgan hududga yaqin o‘zbek shevalari muhim rol hisoblangan. Darhaqiqat shu fikrni taniqli o‘zbek shevashunos olim, akademik Sh.Shoabdurahmonov tomonidan ham aytib o‘tilgan. Ya’ni o‘zbek tili lug‘at tarkibidan mustahkam o‘rin olgan fors-tojikcha so‘zlarning lug‘aviy-mazmuniy ko‘lami nihoyatda keng. Bu holat ularning o‘zbek tilidagi tematik guruhlanishida ham yaqqol seziladi. O‘zbek tili leksikasidagi forscha-tojikcha so‘zlarni tematik jihatdan quyidagicha nomlash mumkin:

1. Binokorlik va maishiy turmushga oid so‘z va atamalar: devor, poydevor, paxsa, darvoza; ganj, ship, ohak, mix, taxta, shisha, narvon, zina, palos, panjara, dasturxon, parda, xokandoz, borkash, obdasta, xum, chiroq, poyandoz, gugurt, g‘alvir, kapgir kabi so‘zlar.

2. Diniy-mifologik tushunchalarni bildiruvchi so‘z va atamalar: bihisht, payg‘ambar, xudo, parvardigor, ro‘za, par, pari, pokdomon, pokiza, bomdod, peshin, shom, xufton, joynamoz, namoz kabi so‘zlardir.

3. Hayvonot va parrandalar olamiga oid so‘zlar: sher, jonivor, fil, nor, bulbul, kamtar, zog‘cha, bedona, pashsha, parvona, akka kabidir.

4. O‘simlik va uning qismlarini bildiruvchi so‘zlar: chinor, daraxt, gilos, anjir, paxta, mosh, no‘xat, tok, poliz, piyoz, sabzi, sholg‘om, sholi, shona, don, shox, bodom, meva, shaftoli, olxo‘ri, gul, tarvuz, turp, kadi, murch, zig‘ir va boshqalar.

5. Yil, fasl, oy, hafta, va ularning qismlarini bildiruvchi so‘zlar: chilla, saraton, navro‘z bahor, hafta, yakshanbi, dushanbi, seshanbi, chorshanbi, panjshanbi va boshqalardir.

6. Musiqa va san’at sohasiga doir so‘zlar: soz, g‘ijjak, karnay, nay, rubob, tor, dutor, sozanda, tarona, ohang, nag‘ma bastakor, shashmaqom, dugoh, segoh kabi so‘zlardir.

Bilamizki, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pi ot turkumiga mansub lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Shuningdek, sifat *(pok, pokiza, xunuk, vazmin, shod, xurram, xursand, yakka, mayda, sust, soxta, arzon, sof, mard, nomard, nodon, puxta, puch, xomush, xira)*; olmosh *(har, hamma, hech);* ravish *(kam, hamon, asta, hanuz, tez)* turkumlariga mansub so‘zlar ham bor. Shuningdek, *bal**ki**, zero, chunonchi, agar, garchi, magar, yoxud, na, toki* singari yordamchi so‘zlar ham o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan ayrim lug‘aviy birliklar o‘zbek tilida nihoyatda rivojlangan. Ya’ni o‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlar iste’molining cheklanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, tojik tilidan o‘zlashgan g‘isht, behi, dazmol so‘zlari iste’molining faollashuvi tufayli o‘zbek tilida ularning muqobillari bo‘lgan *kirpich, ayva, utyg* singari umumturkiy so‘zlar iste’moli barham top-

gan. Barg, daraxt, gul, meva, darvoza, zahar, pul, go‘sht, peshona, mehmon, dushman kabi fors-tojik o‘zlashmalar ham sinonimik qatorda bosh so‘z maqomini olgan. Ma’lumki, fors-tojik lug‘aviy o‘zlashmalarning ayrimlari o‘zbek tili ixtiyoriga o‘tgach, tojik tilida bo‘lmagan boshqa ma’nolar kasb etgan, ayrimlarining esa ma’no ko‘lamida qisqarish sodir bo‘lgan. Masalan, «xunuk» so‘zi tojik tilida *sovuq, salqin,* ma’nolarida ishlatilgan.

U o‘zbek tilida yoqimsiz, chiroyi yo‘q, ko‘rimsiz, noxush kabi ma’nolarda qo‘llanadi. **Dumbul** so‘zining ma’no ko‘lamida ham bu xususiyatni ko‘rish mumkin. Bu so‘z tojik tilida *pishgan, tayyor, toza, pishirilgan tuxum*, *mevaning yaxshi pishgani* ma’nolarini anglatgan. O‘zbek tilida esa *yaxshi pishmagan don, yetilib pishmagan meva, aqli kam, befarosat odam* ma’nolarida qo‘llanadi: *Bizning misollarimizda shuni ko‘rishimiz lozimki, hali dumbul shaftolilarning shoxlari yerda. (Nizom). Azizjon hoji chala dumbul tabiatli xotinining fe’lini yaxshi bilgani uchun, kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishini lozim topdi. (A.Qodiriy).*

Fors-tojik tilida bir necha ma’nolarda ishlatiluvchi so‘zla o‘zbek tiliga o‘sha ma’nolardan birini saqlagan holda o‘zlashgan. *Partov, mag‘iz, darmon, pastkash* singari tojik lug‘aviy o‘zlashmalari ana shunday jihatlariga xosdir.

Kitob-Shahrisabz o‘zbek shevalariga fors-tojik tili va uning dialektlaridan o‘zlashgan so‘zlar aslicha, shuningdek, fonetik va morfologik jihatdan moslashtirib talaffuz etiladi. Buni yuqoridagi misollardan ham ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi so‘zlar semantik jihatdan ham farqlanishini kuzatishimiz mumkin, yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, o‘zlashma so‘zlar boshqa tilga, asosan, o‘zining bir ma’nosi bilan o‘zlashadi hamda keyinchalik ma’no taraqqiyotiga yuz tutadi. Buning natijasida u so‘zlarning etimologiyasini aniqlash bir muncha qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, durda (durd) so‘zi tojik tilida umuman *quyqa* ma’nosida qo‘llansa, Kitob-Shahrisabz guruh shevalarida sariyog‘ va go‘sht qovurilgan yog‘ quyqasi ma’nosidagina qo‘llanadi yoki g‘alamis (galla mush shaklida) tojik tilida «mita» ma’nosida qo‘llansa, o‘zbek tili, shuningdek, Kitob-Shahrisabz shevalarida «yovuz niyatli, sotqin, buzg‘unchilikni kasb qilib olgan kishi» ma’nosida qo‘llanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek dialektlarida bo‘lgani kabi Kitob-Shahrisabz shevalarida ham bir qancha mo‘g‘ulcha so‘zlar uchraydi. Ulardagi fonetik farqlarni hisobga olmaganda, ma’nosi, asosan, mo‘g‘ul tilidagi so‘zlarga mos keladi. Sh.Shoabdurahmonov mo‘g‘ulcha so‘zni tayanch shevalaridagi so‘zlarga mos kelishini ko‘rsatgan[1].

Hozirgacha navkar, axta, bahodir, tarxon kabi mo‘g‘ulcha so‘zlarni o‘zbek tilshunosligida Eron tillaridan o‘zlashgan deyiladi, vaholanki, bu so‘zlarning asl o‘zaklari mo‘g‘ulcha ekanligi yirik mo‘g‘ulshunoslar tomonidan allaqachonlar isbotlangan[2]. Yuqorida keltirilgan misollarning ko‘pchiligi turkiy va mo‘g‘ul tillari uchun umumiy so‘zlardir. Bularning bir qismi qadim turkiy tillardan mo‘g‘ul tiliga o‘tgan bo‘lsa (qut, yovchi, jijda, aslan, bertmoq, djil, bahodir, av), botir, qarshi, g‘unandjin, g‘unon, bo‘gursaq, davan, aq(x)ta, navkar, aymaq, buqa, bo‘ksa, o‘rda, manglay, yurt kabi so‘zlar turkiy tillarga (o‘zbek tili va uning shevalariga) mo‘g‘ul tilidan o‘tgan deb faraz qilish mumkin.

Tungus-manjur tillariga xos bo‘lgan anchagina so‘zlarning o‘zbek tili va uning shevalaridagi so‘zlarga semantik o‘xshashligi ham juda xarakterlidir. Masalan, ava – ov, avaga – amakivachcha (<ava+aga), aylag – ovloq, adi:rga, azirga – <qad.turk ayg‘ir – ayg‘bir, alchancha – alchaymoq, aqqa – chanqamoq, arqa – spina, arsalan – arslon, baqi – dangasa (qiyoslang: boqi beg‘am), baga<yoqut, baqa – qurbaqa, baymo‘g‘, bajvaj – *xit*. baybi – noprasno, zrya; balta – bolg‘a, bolta; bixa – ozgina, kichkina (qiyoslang, bicha, pichcha, pita, bita kabi); bozo: – buza, buda – bug‘doy, buqa – buqa<mo‘g‘. bux; butun – butun, baa – beshik, bel – bel, botaga – bo‘taka, parranda jig‘ildoni; altun (<al – qizil + tun – *xit*. mis) – oltin; olan – (bu so‘z Kitob-Shahrisabz guruh shevasida: «oz uyim olan toshagim» maqolida ishlatiladi) va b.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vaqt o‘tishi bilan shevalarga xos so‘zlar, so‘z formalari va terminlar yo‘qolib ketmoqda. Masalan, alag‘da – xavotir, alqundi – sovun qoldig‘i, ko‘nargi – sut ivitishda qo‘llaniladigan qatiq, tulum – tulup, mesh, to‘rba – ot boshida kiydirilib yem-yemish beriladigan qop kabi. Shuning uchun bularni tezroq yig‘ib olishimiz va tadqiq qilishimiz zarur. Qaysiki, har qanday so‘z, termin u adabiy tilga kirganmi yoki biror shevaning o‘zigagina xosmi, unisidan qat’i nazar, fan uchun ma’lum ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, hozirgi vaqtlarda Respublikamizda tilga bo‘lgan e’tibor jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. O‘zbek va fors-tojik tillarining lug‘aviy jihatlarini aytish mumkinki, yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholi shevasining o‘rganish dolzarb masalaga aylanib, Qashqadaryo viloyatidagi turli millatlarning bir joyda do‘stona munosabatda bo‘lib yashayotganliklari tillararo aloqalarni rivojlanishga olib keladi. Shuningdek, o‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa

[1] Шоабдураҳмонов Ш. Узбек адабий тили ва узбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 221-222.

[2] Санжеев Г.Д., Владимирцов Б.Я. Исследование монгольских языков: Филология и история монгольских народов. – М., 1968. – Б. 12–27.

olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosi hamda rivojlanish poydevoridir. Shu bilan birga, ma’lum bo‘ladiki, tilda so‘zlarning o‘zlashishi adabiy tildan shevalar tomon hamda shevalardan adabiy til sari bo‘lishi ham kuzatiladi.

Rezyume. Qashqadaryo viloyatining o‘zbek shevalari lug‘ati tarkibiga turli tillar, jumladan fors-tojik, arab va boshqa tillardagi so‘zlar turli yo‘llar orqali o‘zlashgan. Fors-tojikcha so‘zlar asosan og‘zaki so‘zlashuv nutqi orqali o‘zlashgan bo‘lsa, arabcha so‘z va terminlar esa adabiy tilimizga, ko‘proq, kitobiy til orqali, shuningdek, qisman islomiy-diniy amallarda qo‘llaniladigan og‘zaki nutq orqali kirgan. Bu jarayon lahja va shevalarimizga, asosan, so‘zlashuv yo‘li bilan o’zlashganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Kitob va Shahrisabz tumanlaridagi o‘zbek shevalariga o‘zlashgan fors-tojik va arab tillaridagi so‘zlarning og‘zaki so‘zlashuvdan, shuningdek, kitobiy til orqali o‘zlashib kelayotganligi tahlil etilgan.

Resume. The vocabulary of the Uzbek dialects of the Kashkadarya region includes words from various languages, including Persian-Tajik, Arabic and other languages. Farsi-Tajik words were mainly acquired through oral speech, while Arabic words and terms were used in our literary language, mostly through book language, and partially used in Islamic-religious practices. entered by word of mouth. We can observe that this process has been assimilated into our dialects and dialects mainly through conversation. This article analyzes the acquisition of Persian-Tajik and Arabic words from Kitab and Shahrisabz districts of Kashkadarya region, which have been assimilated into Uzbek dialects, from oral communication, as well as through literary language.

Резюме. В словарный запас узбекских диалектов Кашкадарьинской области входят слова из разных языков, в том числе персидско-таджикского, арабского и других языков. Фарси-таджикские слова усваивались в основном посредством устной речи, тогда как арабские слова и термины употреблялись в нашем литературном языке, преимущественно посредством книжного языка, и частично использовались в исламско-религиозной практике, передаваемой из уст в уста. Мы можем наблюдать, что этот процесс усвоился в наших диалектах и диалектах главным образом посредством разговора. В данной статье анализируется заимствование персидско-таджикских и арабских слов из Китабского и Шахрисабзского районов Кашкадарьинской области, ассимилированных в узбекские диалекты, как из устного общения, так и через литературный язык.